TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ZIYOMOV BOBUR ZIYOMOVICH

DEHQONOBOD EGILMASINING ZAMONAVIY GEODINAMIKASI

04.00.03 – "Geotektonika va geodinamika.Petrologiya va litologiya"

Geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent- 2023

UO‘K 551.248.1: 550.83(552.1+553.078.4) (575.192)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертатсии доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ziyomov Bobur Ziyomovich
Dehqonobod egilmasining zamonaviy geodinamikasi.....3

Зиёмов Бобур Зиёмович
Современная геодинамика Дехканабадского прогиба.....23

Ziyomov Bobur Ziyomovich
Modern geodynamics of the Dekhkanabad trough.....43

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published work.....47

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ZIYOMOV BOBUR ZIYOMOVICH

DEHQONOBOD EGILMASINING ZAMONAVIY GEODINAMIKASI

04.00.03 – "Geotektonika va geodinamika.Petrologiya va litologiya"

Geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent- 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B 2021.1.PhD/GM100 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ingeo.uz) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Turapov Mirali Kamalovich,** geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yuldashev Gafur Yuldashevich** geologiya-mineralogiya fanlari doktori
	Jo‘raev Mexroj Nurillaevich geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**“Regionalgeologiya” DUK**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2023.T.73.04 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengash 2023 yil «16» sentabr soat 10^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo’lchilar ko’chasi, 1-uy. Tel. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; email: rektora@tstu.uz., tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin (119-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo’lchilar ko’chasi, 1-uy. Tel. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «05» sentabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «05» sentabrdagi 01 - raqamli reestr bayonnomasi)

A.I. Adilxodjaev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

U.Z. Shermuxamedov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

A.A.Ishanxodjaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida seysmik rayonlashtirish va seysmogeologik ma'lumotlardan keng foydalanish, jumladan, yer qobig'ining seysmik faol mintaqalarini va ular bilan bog'liq faol hududlarni ajratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda hududlarni seysmik rayonlashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hududlarni seysmik rayonlashtirishning ishonchliligi ta'minlashda geologik-geofizik va seysmogeologik ma'lumotlarni zamonaviy dasturiy vositalarda kompleks tahlil qilish natijasida tektonik harakatlarni monitoring qilish qolaversa, faol seysmik zonalarni ajratishda alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jahon miqyosida seysmik rayonlashtirishda yer qobig'ining zamonaviy geodinamikasini o'rganishda borasida ilmiy asoslangan qator maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, seysmik faol yer yoriqlarini, tektonik faolligini aniqlash, kuchlanish to'plangan zonalarni ajratish va zilzila oqibatlarini infratuzilmaviy rivojlantirish rejasini va ularning oqibatlarini kamaytirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida zamonaviy geodinamika, yer qobig'ining vertikal-gorizontal harakatlarini tahlil qilish, strukturaviy tahlil va geodinamik tadqiqotlar olib borish, tuzilmalarning shakllanishi sharoiti, tektonika, seysmologiya hamda foydali qazilma boyliklariga doir muammolarni asoslash imkonini beradi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda hududlarning seysmik xavfini o'rganish, faol seysmik zonalarni aniqlash, seysmik rayonlashtirish va zilzilalarni bashorat qilishni o'rganish bo'yicha geologik-qidiruv ishlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, hududlarni seysmik rayonlashtirish xaritalari va seysmik xavfli zonalarning hozirgi zamonaviy geodinamikasi asoslandi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "23-maqsad: Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish..."[1] vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, Janubiy O'zbekiston hududida olib borilgan geologik-geofizik ishlar asosida hududning zamonaviy geodinamik holatini aniqlash va takomillashtirishga yonaltirilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 1 iyundagi "Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf qilish samaradorligini tubdan yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5066-son Farmonlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.07.2020 yildagi PQ-4794-son O'zbekiston respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

[1]2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Tadqiqotlarning O‘zbekiston respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.

Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning VIII “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot hududida neft-gaz konlarni geologik-qidirish, zilzilalarni bashorat qilish va seysmik xavfni baholash maqsadida yer qobig‘i geodinamikasini o‘rganishga doir ilmiy tadqiqotlar o‘tgan yuz yillikning oxirlaridan rivojlana boshlangan.

Geodinamikaning ilmiy asoslari V.Ye. Xain, A.V. Peyve, D.V. Rundkvist, L.I. Krasniy, B.A. Blyuman, Yu.M. Pusharovskiy, V.G. Trifonov, G.A. Sobolev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. O‘zbekiston hududida paleozoy tuzilma qavatining geodinamikasini o‘rganilish tarixi I.H. Hamrabaev, T.N. Dolimov, V.I. Troiskiy, I.M. Golovanov, P.A. Muxin, R.X. Mirkamalov, Yu.S. Savchuk, M.K. Turapov, L.R. Sadiqova, B.S. Nurtoev va boshqalar bilan bog‘liq. Neft-gazli uyumlarni bashorat qilish va izlash maqsadida mezo- kaynozoy hosilalarining geodinamikasi “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DM olimlari G‘.S. Abdullaev, F.G. Dolgopolov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi FA Seysmologiya institutida O‘zbekiston hududining zamonaviy geodinamikasi masalalari Q.N. Abdullabekov, A.R. Yarmuxamedov, R.N. Ibragimov, R.S. Ibragimov, T.A. Artikov, U.O. Nurmatov va boshqalarning ishlarida aks ettirilgan.

Ular tomonidan zilzilalar o‘choqlarini tadqiq qilish texnologiyalari, seysmik faol zonalar va yer yorig‘larni o‘rganish, seysmik xavfni baholash, O‘zbekiston Respublikasi hududida mahalliy seysmik faol zonalarni seysmik rayonlashtirish, shuningdek zilzilalarni bashorat qilish usullari ishlab chiqilgan. Erishilgan katta ilmiy natijalarga qaramay hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududining zamonaviy geodinamikasi, xususan iqtisodiy va infratuzilmaviy jadal rivojlanayotgan hududlarining, shu jumladan Qashqadaryo mintaqasida joylashgan. Dehqonobod egilmasi hududining zamonaviy geodinamikasi masalalariga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi ham Dehqonobod egilmasining zamonaviy geodinamikasini o‘rganish va baholash bilan belgilanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. O‘zbekiston Respublikasi FA Seysmologiya institutining amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F8-FA-0-35493 “Yer qobig‘ining deformatsiyalanishi va yer yorig‘ida zilzilalar hosil bo‘lish mexanizmlarining modellarini ishlab chiqish” (2013-2015 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Dehqonobod egilmasining geodinamikasi bo‘yicha zamonaviy geodinamik modellarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Janubiy va G‘arbiy Tiyon-Shon orogen hududini, xususan Dehqonobod egilmasining geologik-geofizik, tektonika, seysmologiya va geodinamikaga oid materiallarini to‘plash, tahlil qilish va tartibga solish;

Dehqonobod egilmasining regional tektonik tuzilmalardagi va mezozoy-kaynozoy yotqiziqlarini geodinamikasida, geologik-geofizik modellari; Markaziy Osiyo kosmo tuzilmalardagi, Dehqonobod egilmasiga ta’sir ko‘rsatuvchi zamonaviy tashqi kuchlar modelidagi; O‘zbekiston hududining seysmik faol tizimidagi o‘rnini aniqlash;

Yerni masofadan zondlash ma’lumotlarini (kosmik suratlarni) deshifrovka qilish;

Dehqonobod egilmasining hozirgi geodinamika vaziyatini rekonstruksiya qilish.

Tadqiqotning ob’ekti Janubi-G‘arbiy Tiyon-Shon hududining sharqiy qismida joylashgan Dehqonobod egilmasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Dehqonobod egilmasining geologik, tektonik tuzilishi, hududning kosmik suratlari, hududdagi yer yorig‘lari va ularning dinamikasi, tashqi tektonik kuchlar va ularni egilmaga ta’siridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda, geologik-geofizik, tektonik, seysmologik va geodinamik tadqiqotlari ma’lumotlarini nazariy umumlashtirish va yer yoriqlarning faolligini, yer qobig‘i tuzilmalarini eksperimental tektonik-fizik modellashtirish tahlilini o‘z ichiga olgan uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Dehqonobod egilmasi tektonik faol xususiyatiga ega planetar miqyosdagi lineament zonasida joylashganligi aniqlangan;

Dehqonobod egilmasining zamonaviy geodinamikasi ko‘p jihatdan uning regional yer yoriqlar to‘ridagi, geofizik anomaliyalar va seysmik zonalardagi o‘rniga, shuningdek poydevor tuzilishiga va mezo-kaynozoy yotqiziqlari tarkibiga bog‘liqligi isbotlangan;

Kosmik suratlar va tektonik modellashtirish natijalari bilan birga geologik-geofizik, tektonik, kosmogeologik ma’lumotlarini deshifrovka tahlil qilish orqali Dehqonobod hududiy egilmasining kosmo tuzilmaviy modeli yaratilgan;

Dehqonobod egilmasi geodinamikasining asosiy uzilmali tuzilmalarining tektonik faolligi, ayrim bloklarning siljishi bilan tavsiflanadi, bu esa yer yorig‘larni bukilish, tutashish va kesishish zonalarida tektonik kuchlanishni to‘planishiga olib kelganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

kosmik suratlarni tahlil qilish natijalari bo‘yicha Dehqonobod egilmasining hududini seysmik rayonlashtirishda foydalanish uchun tavsiya etilayotgan kosmik tuzilishi modeli yaratilgan;

Dehqonobod egilmasiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi kuchlarni hisobga olgan holda, kuchlanishlarni modellash natijalarini tahlil qilish asosida Dehqonobod egilmasining ikkita variantdagi zamonaviy geodinamika modeli ishlab chiqilgan;

Dehqonobod egilmasining asosiy mintaqaviy shimoli-sharqiy yer yoriqlarini tashqi kuchlar ta’sirida tektonik faol bo‘lishi aniqlangan;

Markaziy Osiyo yer po‘stining zamonaviy faolligi doirasida egilmaning o‘q zonasi pasayib borish ta’siriga ega, butun hududning chekkalari esa yiliga umumiy 2-6 mm ga ko‘tarilish ta’siriga ega ekanligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Seysmikqidiruv ishlarining 2D, 3D ma’lumotlari, mezozoy yotqiziqlarini ochgan 300 dan ortiq chuqur quduqlarni burg‘ilash ma’lumotlari Dehqonobod egilmasining planetar miqyosidagi lineamentlar va seysmik faol mintaqalarda, Markaziy Osiyo tektonosferasining geofizik faol maydonlarida, kosmik tuzilmalar va seysmik xavfli mintaqalarida tutgan o‘rni, kosmik suratlarni tahlil qilish va litosfera plitalarining hozirgi zamon harakatini hisobga olgan holda egilma tuzilmalarining kuchlanish-deformatsiyasini modellashtirish eksperimental tadqiqotlar yordamida amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Dehqonobod egilmasining zamonaviy geodinamikasi tashqi geodinamik kuchlarning ta’sirida Hisor tog‘ tizmasinig janubi-g‘arbiy tarmoqlarining shimoli-sharqiy yo‘nalishda seysmogen zonalar tizimini ajratish imkonini beradi. Ushbu geologik-geofizik, seysmogeologik, seysmik rayonlashtirish bo‘ycha olib borilgan izlanishlar tahlili orqali seysmik faol zonalarni ajratishning ishonchliligi bilan o‘z ahamiyatga ega, bu esa o‘z o‘rnida erishilgan natijalar ilmiy tadqiqotlarda muhimligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati Dehqonobod egilmasining zamonaviy geodinamikasini tahlil qilish natijasida geodinamik sxemalar, turliy yo‘nalishda tektonik (seysmik faol) yer yoriqlari, siljishlar hududning seysmik faol zonalarni ajratishda tadqiqotlar ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dehqonobod egilmasining zamonaviy geodinamikasini tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

eksperimental tektonika va tuzilma-geologik usullar asosida uning mintaqaviy yoriqlari to‘rida, geofizik anomaliyalar, poydevorning tuzilishiga va mezozoy-kaynozoy yotqizig’ tarkibiga bog‘liqligi “O‘zbekgeofizika” AJ faoliyatiga joriy qilingan (Davlat geologiya qo‘mitasining 2021 yil 8 noyabrdagi 03/32 -son ma’lumotnomasi). Natijada Tandircha tuzilmasida ishlarni rejalashtirishga imkon yaratgan;

kosmik suratlarni tahlil qilish, tektonik modellashtirish natijalari bilan birga geologik-geofizik, tektonik-kosmogeologik xaritalar “O‘zbekgeofizika” AJ amaliyotiga joriy qilingan (Davlat geologiya qo‘mitasining 2021 yil 8 noyabrdagi № 03/32 -son ma’lumotnomasi). Natijada Tandircha tuzilmasi yer yorig‘larini aniqlash va neft-gazli tuzilmalarni geologik-qidirish ishlarini samarali olib borishga xizmat qilgan;

Dehqonobod egilmasi geodinamikasining asosiy uzilmali tuzilmalarining tektonik faolligi bo‘yicha modellari “O‘zbekgeofizika” AJ ishlab chiqarish faoliyatiga joriy qilingan (Davlat geologiya qo‘mitasining 2021 yil 8 noyabrdagi

№ 03/32 -son ma’lumotnomasi). Natijada Dehqonobod egilmasi hududidagi olib borilayotgan seysmik qidiruv ishlarini samarali rejalashtirishga imkonini bergan.

hududni seysmik rayonlashtirishda foydalanish uchun tavsiya etilayotgan kosmostrukturaviy modelga oid hujjatlar to‘plami Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognostik monitoring Respublika markazida joriy qilingan (O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2021 yil “09” avgustdagi №2/4/32-2242 ma’lumotnomasi). Natijada hududni seysmik faol yer yoriqlarini ajratish imkonini bergan;

Markaziy Osiyo yer po‘stining hozirgi faolligi doirasidagi Dehqonobod egilmasining asosiy shimoliy-sharqiy yer yoriqlarining kuchlar ta’siri ostida tektonik faolligi bo‘yicha olingan natijalar Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognostik monitoring Respublika markazida joriy qilingan (O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2021 yil “09” avgustdagi №2/4/32-2242 ma’lumotnomasi). Natijada hududni infratuzilma rivojlantirish dasturni qaytadan takomillashtirish imkonini bergan.

Janubi - G‘arbiy O‘zbekistoning janubiy hududida ustunlik qiluvchi havf omillari va seysmik havfi yuqori zonalariga tegishli asoslangan ilmiy xulosalar Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognostik monitoring Respublika markazida joriy qilingan (O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2021 yil “09” avgustdagi №2/4/32-2242 ma’lumotnomasi). Natijada seysmik faol zonalarda barpo etilgan inshootlarni favqulotda hodisalardan saqlanish va ularni nazorat dasturni ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 5 ta respublikada, 3 tasi chet el jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 bet va 28 ta rasmdan iborat (ilovalarsiz).

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo‘lgan talab, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiq qilinganligi va qo‘llanilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dehqonobod egilmasi hududini o‘rganilganlik tarixi”** deb nomlangan birinchi bobida Janubi-G‘arbiy Tiyon-Shon hududini paleozoy poydevorini geologik o‘rganish tarixida A.K. Buxarin, T.I. Xayrullin, Z.S. Rumyanseva, Yu.A. Lixachev, Z.M. Abduazimova, K.K. Pyatkov,

I.H. Hamrabaev, M.M. Purkina, M.T. Xon, A.A. Rubanov, Ya.B. Aysanov, X.R. Raxmatullaev, M.A. Axmedjonov, O.M. Borisov, I.A. Fuzaylov, I.M. Mirxodjaev, M.M. Mansurov, V.S. Korsakov, I.A. Pyanovskaya, Z.A. Yudalevich, F.K. Divaev, V.D. soy, T.Sh. Shoyaqubov, Sh.Sh. Sabdyushev, V.A. Xoxlov va boshqalarning tadqiqotlari e'tiborga loyiq.

Tektonik tuzilishni o'rganishda H.M. Abdullaev, I.H. Hamrabaev, M.A. Axmedjanov, O.M. Borisov, X.D. Yakubov, M.T. Xon, I.A. Fuzaylov, S.S. Shuls-kichik, V.S. Burtman, Sh.Sh. Sabdyushev, R.R. Usmanov, M.M. Mansurov, Yu.S. Savchuk, R.X. Mirkamalov va boshqalar, katta hissa qo'shganlar, ular tomonidan tektonik tuzilmalar morfologiyasi, yoshi, genetik turi va magmatizm va ma'dan hosil bo'lishning o'zaro aloqalarini aniqlagan. Janubiy va G'arbiy O'zbekiston magmatizmini o'rganishda H.M. Abdullaev, I.H. Hamrabaev, I.M. Isamuxamedov, Ye.D. Karpov, T.N. Dolimov, T.Sh. Shoyaqubov, E.P. Izox, Z.A. Yudalevich, I.V. Mushkin, F.K. Divaev va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Paleozoy poydevor mineralogiyasi va metallogeniyasi bilan H.M. Abdullaev, K.L. Babaev, V.G. Garkoves, T.M. Masokina, X.R. Raxmatullaev, I.H. Hamrabaev, L.Z. Paley, S.T. Badalov, M.M. Mansurov, S.D. Sher, S.Ya. Klempert, N.V. Koroleva, V.D. Soy va boshqalar shug'ullanganlar.

Dissertatsiyaning **"Dehqonobod egilmasining geologik tuzilishi"** deb nomlangan ikkinchi bobida Janubi-G'arbiy Hisor hududi Boysun gorst-megaantiklinaliga to'g'ri keladi, uning burmalangan asosi tokembriy va paleozoy hosilalaridan tashkil topgan. Mezozoy cho'kindi yotqiziqlari ikki bo'g'inli tuzilishga ega: trias va yura yoshidagi hamda tuzusti bo'r, paleogen va neogen yoshidagi komplekslari.

Tokembriy hosilalari Hisorning Janubi-G'arbiy tizmalarida, Boysun tog', Surxon tog' va Suziz tog' kesimlarida ajratilgan. Ular gneyslar, silikat-biotitli kvarsitlar, muskovitli, amfibolli granit-gneysli slaneslar bilan ifodalangan.

Mezozoy (MZ) *Trias sistemasi* (T). Trias yotqiziqlari lokal rivojlangan, paleozoyda nomuvofiq tarzda joylashgan. T.A. Sikstel tomonidan quyi trias yotqiziqlari shartli ravishda ohaktoshlar, konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar va tuflar qatlamchalari mavjud bo'lgan argillitlardan tashkil topgan xonakli svitasi tarkibiga kiritilgan. *Yura sistemasi* (J). Yura tizimi pastdan yuqoriga qarab uch qatlamga bo'linadi: terrigenli, karbonatli va tuzli-angidritli. Quyi va o'rta yura (J_{1+2}). Terrigenli kompleks qumtoshlar. alevrolitlar, argellitlar, mergellar va gillarning qat-qatlashishlaridan tashkil topgan. Yuqori yura (J_3). Yuqori yura yotqiziqlari ikki formatsiya bilan ifodalanadi: karbonatli (kellovey-kimeridj yarusi) va tuzli-angidritli (titon yarusi). *Bo'r sistemasi* (K). Quyi bo'r (K_1) Neokom-apt yarusi quyi qismida qizil rangli gillar, alevrolitlar gips qatlamchalari mavjud bo'lgan qumtoshlardan iborat. Yuqori bo'r (K_2). Yuqori bo'r yotqiziqlari keng tarqalgan bo'lib. Kesimda alevrolit-qumli jinslar ko'proq bo'lgan gillar, alevrolitlar, qumtoshlar va ohaktoshlarning navbatma-navbat keluvchi bir xildagi qatlamlari bilan ifodalanadi. *Kaynozoy* (KZ) *Paleogen sistemasi* (₽). Paleogen tizimi. Paleogen yotqiziqlari yuvilish bilan bo'r hosilalarini yopib olgan.

Paleogenli kesimlarda paleotsen, eotsen va oligotsen uchastkalari ajratiladi. Eng to‘liq kesimlar Hisorning janubi-g‘arbiy tizmalari ochilmalarida va Dehqonobod egilmasi doirasida rivojlangan. Paleogenli kesimlar ohaktoshlar, paleotsen mergellari, eotsen va oligotsenning alevrolitlar, mergellar va gips qatlamchalari mavjud bo‘lgan yashil-kulrang gillaridan tashkil topgan. *Neogen sistemasi* (N). Neogen yotqiziqlari hudud doirasida hamma yerda ham tarqalmagan. Eng to‘liq kesimlar Dehqonobod egilmasi doirasida va Hisorning janubi-g‘arbiy tizmalari ochilmalarida rivojlangan. *To‘rtlamchi davr sistemasi* (Q). Ushbu tizim yotqiziqlari yaxshi saralanmagan galechnik jinslari, turli suglinkalar, kam hollarda to‘shama jinslar ustida keskin nomuvofiq burchak ostida joylashgan qumlar bilan ifodalanadi. *Dehqonobod egilmasining tektonik tuzilishi* Dehqonobod egilmasining mintaqaviy tektonik tuzilmalardagi o‘rni subparallel-Boysun-Kugitang va Langar-Qorail chuqur yer yorig‘lar orasidagi zonaga bog‘liqliligi bilan aniqlanadi, ular janubdan shimol tomon Uzunquduq, Sundukli-Sho‘rchi, Burgutli-Dehqonobod, Janubiy Qizilqum-Hisor shimoli-g‘arbiy fleksurali va tushilma-uzilmali yer yorig‘lari bilan murakkablashgan. Tektonik pog‘onalar shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi, janubi-g‘arbdan shimoli-sharq tomonga Hisor tizmasining barcha janubi-g‘arbiy tarmoqlarini kesib o‘tuvchi va janubi-sharqiy yo‘nalishda cho‘kib boruvchi chiziqli tortilgan tuzilma elementlarini ifodalaydi.

Boysun gorstmegantiklinali doirasida jami 13 ta tektonik pog‘ona ajratilgan, biroq o‘rganilayotgan hudud asosan ularning oltitasi doirasida bo‘lishidan kelib chiqib, quyida ularni ba’zi biri to‘g‘risida batafsilroq ma’lumotlar keltiriladi.

Janubi-G‘arbiy Tiyon-Shon platformali hududining neft-gazli rayonlarining tektonik elementlarida Dehqonobod egilmasining o‘rnini va tektonikasini o‘rganishga V.I. Popov, A.V. Peyve, S.I. Ilin, A.G. Babaev, B.B. Tal-Virskiy, Sh.D. Davlyatov, O.A. Rijkov, A.M. Akramxojaev, F.X. Zunnunov, Ye.M. Butovskaya, M.A. Axmedjanov, O.M. Borisov, X.A. Atabaev, I.A. Fuzaylov va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. Dehqonobod egilmasi Azlyartepa→Muborak→Qarshi ko‘tarilmasi va Hisorning Janubi-G‘arbiy tarmoqlari orasida Qashqadaryo-Beshkent sinklinal egilmalar zonasining sharqiy qismida joylashgan. Sh.D. Davlyatov va Ye.V. Sharer tomonidan kesmasida tuzilgan Dehqonobod egilmasining o‘rni bo‘r va yura hosilalari bilan belgilanadi. Paleozoy poydevori 2000 m ortiq chuqurda joylashgan. V.N. Lukina (1977) Janubi-G‘arbiy Tiyon-Shon paleozoy poydevori ustki yuzasining deformatsiyasini o‘rganib ta’kidlaydiki, epigersin platformani tuzilishida poydevorni yuzi zinasimon shakilda shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga qarab cho‘kib boradi va burmalarga intensiv bukilgan, kengligi 4-5 km va 10-12 km (Gumbuloq koni), B.B. Tal-Virskiyning geofizik ma’lumotlari bo‘yicha Beshkent egilmasida shunga o‘xshash tuzilmalarning o‘lchamlari 10x17 km tashkil qiladi Sh.D. Davlyatov Beshkent va Dehqonobod egilmalari paleozoyni tik tushuvchi yer yorig‘lari bilan chegaralanadi.

Dehqonobod egilmasini Hisorning Janubi-G‘arbiy tarmoqlari bilan chegarasi yaqinida shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi vertikal yer yorig‘lar seriyasi kuzatiladi, ularning bir qismi paleozoy poydevorigacha bormaydi. Janubi-G‘arbiy Tiyon-Shon tektonikasiga doir ma’lumotlarni B.B. Tal-Virskiy, M.A. Axmedjanov va

boshqalar tahlil qilib va A.V. Peyve, N.M. Sinisin, S.S. Shuls-kichik va boshqalar ma'lumotlariga tayangan holda quyidagilar qayd qiladi: hududning tektonik tuzilishining asosiy jihatlari tuzilma shakllarini subkenglikdagi va g'arb-shimoli-g'arbiy (Tiyon-Shon) yo'nalishi bilan aniqlanadi. D.P. Rezvoyning qayd etishicha, tektonik rivojlanish tarixida shimoli-sharqiy yo'nalishdagi "antitiyonshon" yer yorig'lari muhim o'rin egallaydi. V.N. Lukina paleozoy poydevori yuzasining morfologik xususiyatlarini o'rganib, tuzilma shakllari va uzilma buzilishlarning kesishish zonalarida poydevor yuzasining murakkab deformatsiyalanish tavsifini aniqlagan. Hududni geologik va tektonik rayonlash M.A. Axmedjanov va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra, shunday "antitiyonshon" ko'ndalang yer yorig'larlardan biri biz ko'rib chiqayotgan hududning g'arbidan, shimoliy-sharq yo'nalishda o'tgan. *Dehqonobod egilmasining geofizik maydonlardagi o'rni* Markaziy Osiyoning geofizik xususiyatlarini o'rganishda I.H. Hamrabaev, I.A. Fuzaylov, Ye.M. Butovskaya, B.B. Tal-Virskiy, T.L. Babadjanov, F.X. Zunnunov, O.P. Mordvinsev, F.G. Dolgopolov, G'.S. Abdullaev va boshqalar katta hissa qo'shishgan.

Geofizik ma'lumotlar bo'yicha Dehqonobod egilmasi hududidagi magnit anomaliyalar keng spektrda-musbatdan (200 nTl) to manfiy (-200 nTl) ko'rsatgichlarga qadar namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Magnit anomaliyalarning namoyon bo'lishning o'ziga xosligi-anomaliyalar ko'rsatkichlarining janubi-g'arbdan shimoli-sharq tomon o'zgarib borishidadir. Dehqonobod egilmasining janubi-g'arbiy qismida musbat magnit anomaliyalar kuzatiladi. Ular shimoli-sharq yo'nalishida asta-sekin so'nib boradi va manfiy ko'rsatkichlarga ega bo'ladi.

Musbat va manfiy magnit anomaliyalar nisbati, tog' jinslari zichligini Buxoro-Xiva mintaqasida bo'ylama to'lqinlar tarqalish tezligiga o'zaro bog'liqligi aniqlangan. Olib borilgan geofizik tadqiqotlar Tiyon-Shonning orogen hududidan uzoqlashgan sari jinslar zichligining qonuniy pasayib borishini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotlar natijasida olingan mana bu ma'lumot, ya'ni yer po'stining Chordjou do'ngligi→Beshkent egilmasi→Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmog'i→Surxondaryo egilmasining chizig'i bo'yicha seysmik modeli biz uchun e'tiborga molik. F.X. Zunnunov ma'lumotlariga ko'ra (Chordjou-Surxondaryo egilmasi chizig'i bo'yicha seysmik model) Beshkent egilmasida yerning pastki chegarasi 5000 m, chuqurlikka botgan va seysmik tulqin tezligi 6,1 km/s ga qadar yetadi. Moxorovichich chegarasi kesimning g'arbiy qismida 44-45 km chuqurlikda, sharqida esa 43-44 km chuqurlikda qayd etilgan. Beshkent va Dehqonobod egilmasida konsolidatsiyalangan yer po'stining qalinligi deyarli 39 km ni tashkil qiladi. Moxorovichich bo'limi bo'ylab chegaraviy tezliklari sharqiy yo'nalishda seysmik bo'ylama, tulqinlar tezligi 8,2 km/s dan 8,5 km/s gacha ortib boradi. Beshkent egilmasi seysmik bo'ylama, tulqin tezligi tengligi 8,5 km/s ni tashkil etadi. Farob-Bobotog' profili bo'yicha yer po'stining seysmogen modelida muvofiq ravishda 17-20 km va 29-31 km chuqurda joylashgan bo'yilama tulqin tezligini o'zgarishi chegaralar shartli tarzda ajratilgan.

Dehqonobod egilmasining mintaqaviy lineament zonalardagi o'rni. Hozirgi vaqtda L.S. Borodin, M.P. Orlova va D.M. Orlov ma'lumotlariga ko'ra qit'alarda

50 yaqin ishqorli intruzivlar mavjud. Lineament chiziq-chiziq yer yoriqlari qaysilarinidir nazorat qiladi. L.S. Borodin tomonidan Markaziy Osiyo hududi bo‘yicha Tiyon-Shon Zarafshon-Oloy, Pomir, Koreya-Mo‘g‘iliston va Xitoy lineamentlar tizimi ajratilgan. Ye.A. Poxvisneva sxemasida Markaziy Osiyo hududini ikki yirik lineamentlar zonalari - Yenisey va Pomir-Timanni kesib o‘tadi.

Yenisey lineamenti Arabiston yarim orolining janubi-g‘arbidan boshlanib, Yevro-Osiyo plitasiga kirib boradi va shimoli-sharq yo‘nalishda Janubiy Tiyon-Shon megaantiklinoriyni kesib o‘tadi va Chotqol-Quramaning janubiy yarmi chegarasida Pomir-Timan lineamentini kesib o‘tib, shimoli-g‘arb yo‘nalishda davom etadi. Yenisey ishqorli hududi namoyoni sekin-asta yo‘nalishini o‘zgartirgan holda shimoli-g‘arbga-shimoliy qutb tomon cho‘zilib boradi. Pomir-Timan lineamenti Hindikush va Pomirni kesib o‘tib, Hind plitasining sharqiy qirg‘oq bo‘yidan boshlanadi, Yenisey lineamenti bilan uchrashadi. So‘ng, Yenisey lineamentini kesib o‘tgan holda ikkiga ajraladi va o‘z yo‘nalishini shimoli-g‘arb tomon o‘zgartiradi va 40 meridianga qadar cho‘zilib boradi. Pomir-Timan lineamenti o‘z zonasi bilan Pomir ishqorli intruzivlarni qamrab oladi va Markaziy Osiyo atrofida Talas va Turkiston-Oloy ishqorli intruzivlar orasidagi hududlar bo‘yicha o‘tadi. V.G.Trifonov (2004) ma’lumotlari bo’yicha yer po‘stini zamonaviy harakatlarni o‘rganishning uchta usuli mavjud: 1) kechki to‘rtlamchi davrda faol bo‘lgan yer yorig‘lar va bukilmali egilmalarni xaritalashni o’lchamlashtirishning geologik-geomorfologik tarzda aniqlash; 2) zilzilalar, ularni o‘choqlari hosil bo‘lish mexanizmlari va boshqa o’lchamlarini tahlil qilish; 3) takroriy geodezik o‘lchash. Keyingi ikki usul - seysmologik va geodezik - asboblar bilan amalga oshiriladi. Shu sababli bu texnologiyalardan foydalanib olingan ma’lumotlar, eng aniq hisoblanadi.

XX asrning 80 yillari oxiridan boshlab, to hozirgi kunga qadar geodinamikasini tadqiq qilishda GPS tizimidan foydalanish, yer po‘sti zamonaviy harakatlarini turli darajali miqyosda o‘rganish texnologiyasi yetakchi o‘rinni egallaydi.Yer po‘stining zamonaviy harakatlari to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar G. Gent va boshqalar (1996), ishida keltiriladi. V.G. Trifonov (2004), ma'lumotlarida ta'kidlaganidek Qayd etilishicha G. Gent ma’lumotlarining aniqligini yettita Yevropada va AQShda uchtadan, Kanadada bitta analitik markazlar tadqiqotlari natijalariga mos kelishi tasdiqlashadi. Yer po‘sti tektonik plitalarining zamonaviy harakatlari natijada Janubiy Qozog‘iston va Markaziy Osiyo hududlari qat’iy tarzda g‘arbdan sharq tomon surilmoqda. Bu turdagi harakatlanishning shakllanishini Yevro-Osiyo plitasining yevropa qismining faollashishi bilan bog‘lash mumkin, bu yerda gorizontal siljish tezligi vektorlari shimoli–sharqqa yo‘nalgan. Ikkinchi sabab, Hind platformasi tektonik kuchlarini Tiyon-Shonga ta’sir qilishining susayishi ehtimoldan xoli emas. Chunki uning janubiy qismi gorizontal tarzda shimoli-g‘arb yo‘nalishda siljimoqda. Shunday qilib, Yevro-Osiyoning platformasini janubiy qismi sharqga qarab va Hind plitasining (shimoli - sharq yo‘lanishda) harakatlanishi fikrimizcha, Markaziy Osiyo, shu jumladan Dehqonobod egilmasi hududining zamonaviy geodinamikasini belgilaydi, bu yerda Markaziy Osiyo hududiga sharqdan

(Hindiston plitasti) tomondan keng yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi tektonik kuchlar ustunlik qiladi. Bulardan tashqari shimoldan ta’sir ko‘rsatayotgan tashqi tektonik kuchlarni (Qozog‘iston mikroplitasi) hisobga olish kerak.

G‘.A. Mavlonov, V.I. Ulomov, Q.N. Abdullabekov, T.U. Artikov, R.N. Ibragimov, va boshqalar. T.U. Artikov, R.S. Ibragimov va boshqalarning qayd etishi bo‘yicha Markaziy Osiyo hududining geologik va seysmologik ma’lumotlari asosida zilzilalar yer qa’rida, chuqur yer yorig‘lar zonalarida to‘plangan mexanik kuchlanishlarning bir onda bo‘shanishi natijasida sodir bo‘ladi. Geofizik anomaliyalar, lineament mintaqaviy tiuzilmalar modelini, o'rganish natijalari bo’icha. Buxoro-Xiva neft-gazli mintaqalarning sharqiy qismi, shu jumladan Dehqonobod egilmasi ham seysmik faol zonada joylashganligi aniq.

G.A. Sobolev ishonchli ma’lumotlari asosida bu yerlarda magnitudasi 7,6-8,0 tashkil qiluvchi zilzilala sodir bo‘lishi kutiladi. Dehqonobod egilmasi aynan halokatli zilzila sodir bo‘lishi ehtimoli mavjud zonada joylashgan. V.I. Ulomov, Q.N. Abdullabekov, G.A. Sobolev, R.N. Ibragimov, T.U. Artikov, R.S. Ibragimov va b. ma’lumotlari bo‘yicha seysmik faol zonalar yirik uzilma yoki uzilmalar tizimi zonasini ifodalaydi. G.A. Sobolevning geostrukturalar va zilzilalar o‘choqlari sxemasida shimoli-sharqiy seysmik faol zona Beshkent va Dehqonobod egilmalarini, ehtimol, Hisorning janubi-g‘arbiy tizmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Ushbu barcha ma’lumotlar Dehqonobod egilmasi, Janubi-G‘arbiy Tiyon-Shon plaformali hududlari seysmik xavfli hududlari hisoblanadi deb xulosa chiqarishga imkon beradi. Buni O‘zbekiston litosferasining geodinamikasi va neft-gazliligiga oid G‘.S. Abdullaev va F.G. Dolgopolovlarni tadqiqotlari ham tasdiqlaydi.

Platformaliga qadar bo‘lgan geodinamik rejimni qayta tiklash asosida, ular tomonidan Markaziy Osiyoning tomezozoy tuzilmalarini geodinamik rayonlashtirish sxemasi tuzilgan. Dinamik kuchlanishlar migratsiyasi janubi-sharqiy yo‘nalishda kuzatiladi. Bunday geodinamika sharoitda Dehqonobod egilmasining kuchlanishi - deformatsiyalanishi ortadi, yer yorig‘lar bilan faollashgan zonalarda yangi tuzilmalar hosil bo‘ladi. G‘.S. Abdullaev va F.G. Dolgopolovlar bo‘yicha paleozoy geotuzilmalar geodinamikasi Markaziy Osiyoning mintaqaviy uzilmali buzilishlarining tizimi va litosfera bloklari shakllari bilan bog‘liq bo‘lib, ular yaqin joylashgan litosfera plitalari dinamikasi bilan bog‘liq bo‘lgan uchta tashqi siquvchi kuchlar tavsifini aks ettiradi. Hisorning janubi-g‘arbiy tizmalari hududidi bo’yicha, Dehqonobod va Beshkent egilmalarida shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi seysmogen zonalar ajratilgan. Seysmogen zonalarning biri Beshkent egilmasi chegarasida ajratilgan, bu yerda shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi tik tushuvchi chuqur yer yoriq kuzatiladi. Dehqonobod egilmasini Markaziy Osiyo seysmogen zonalardagi o‘rni Hisorning janubi-g‘arbiy tizmalari hududida shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi seysmogen zonalar oralig‘i bilan belgilanadi. Ikkinchi seysmogen zona birinchisining sharqida, Beshkent va Dehqonobod egilmalari orasida, paleozoy poydevori ochilib qolgan joy atrofida joylashgan. Shimoli-sharqda uchinchi seysmogen zona bilan birlashadi va Janubiy Tiyon-Shon yirik seysmogen zonasini hosil qilgan holda Hisorning janubi-g‘arbiy tarmoqlarini keng tasmada qamrab oladi.

“Dehqonobod egilmasining kosmogeologik tuzilma modeli” deb nomlangan uchinchi bobida. O.M. Borisov, A.K. Glux va b. Tomonidan Janubiy Tiyon-Shon janubi doirasida shimoli-g‘arbiy, shimoli-sharqiy va kenglikga oid yo‘nalishlarda mintaqaviy lineamentlar va bir necha kichik halqasimon tuzilmalar ajratilgan. Ular ma’lumotlarga ko‘ra Dehqonobod egilmasi hududining katta qismini diametri 30-32 km bo‘lgan shu nomdagi halqali tuzilma egallagan. U uchta kichik, diametri 10-15 km halqali tuzilmalar bilan murakkablashgan.

Geologik ob’ektlarning asosiy tahlil qilish belgilari bo‘lib, ularning shakli, o‘lchami, tusi, teksturasi, joylashish o‘rni va boshqalar hisoblanadi.

Dehqonobod egilmasining kosmogeologik modeli. Dehqonobod egilmasi hududining Landsat-8 kosmik tasvirini ERDAS IMAGE dasturi (PCA) Principal component analysis usuli orqali deshifrovka qilindi. Dehqonobod egilmasining markaziy qismida diametri 6 km dan ortiq bo‘lgan xalqali tuzilmaning fragmenti tavsiflangan. Ushbu fragment (O.M. Borisov, A.K. Glux bo‘yicha) Ishakmaydon xalqaliy tuzilmasiga tegishli. Dehqonobod egilmalarining shimoli-g‘arbida Dehqonobod halqali tuzilmasining fragmenti tavsiflangan. Aniqlangan chiziqli tuzilmalar, asosan shimoli-sharqiy yo‘nalishga ega bo‘lib, ular O‘zbekistonning mezozoy-kaynozoy cho‘kindi yotqiziqlarining geodinamik xaritasida (G‘.S. Abdullaev 2009) aniq aks etgan. chiziqli tuzilmalar, uzuq-uzuq tavsifga ega. Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq (O.M. Borisov, A.K. Glux, I.K. Rundkvist, B.S. Zeylik, Ya.G. Xon, N.I. Korchuganov va boshqalar) halqali tuzilmalari va lineamentlarini o‘rganish misolida, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklik mavjudligi aniqlangan: halqali tuzilmalar asosan lineamentlarning chekkalarida va ularning kesishish joylarida joylashadi; halqali tuzilmalar, ular bo‘ylab yangilarini tashkil qilgan holda, lineamentlarni kuzatib boradi. Ushbu xususiyatlar Dehqonobod egilmasi va uni yon atrofidagi maydonlar uchun ham tavsiflidir. Janubiy Dehqonobod, Ishakmaydon va Qarshi kichik halqali tuzilmaning g‘arbiy chegarasi ham ushbu tugun kesishgan lineamentlar bilan bog‘langan. Shunday qilib, mintaqaviy miqyosdagi xalqali tuzilmalar va lineamentlar o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjud. biroq, katta bo‘lmagan tektonik tuzilma (egilma)lar ya’ni ular orasidagi bog‘liqlikni aniqlash juda qiyin. Buning sababi tadqiqotlar miqyoslarida bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ular Dehqonobod egilmasi kosmotuzilmalar modeliga fragmentlar bo‘yicha taqdim qilingan.

”Dehqonobod egilmasining zamonaviy geodinamikasi” nomli to‘rtinchi bobida Markaziy Osiyo, xususan Janubiy-G‘arbiy Tiyon-Shon janubiy hududining geologiyasiga, geofizikasiga, tektonikasiga, geodinamikasiga va seysmologiyasiga ma’lumotlari asosida, biz o‘rganayotgan. Dehqonobod egilmasining hududi, uning tektonikasiga va shakllanish va rivojlanishga geodinamikasiga nisbatan turlicha yondoshishlarga qaramay, tektonik faol zona ekanligi aniqlandi. Markaziy Osiyo tektonosferasining geologik-geofizik tadqiqotlariga ko‘ra B.B. Tal-Virskiy, V.V. Gordienko, V.N. Lukina, F.X. Zunnunov, I.H. Hamrabaev, Sh.D. Davlyatov va boshqalar, deformatsiyaning kuchayishi mintaqaviy yer yorig‘larda, ularning kesishish va tutashgan zonalarida kuzatiladi. Deformatsiyalanish darajasi ko‘plab omillarga bog‘liq. Bular ichida geologiya hosilalarning tarkibi va fizik parametrlari

